

UZBEKİSTAN

LANGUAGE & CULTURE

O'ZBEKİSTON: TIL VA MADANIYAT

Adabiyotshunoslik

2025 Vol. 1 (2)

www.literature.tsuull.uz

ISSN 2181-922X

ISSN 2181-922X

O'ZBEKİSTON: TIL VA MADANIYAT

ADABIYOTSHUNOSLIK

2025 Vol. 1 (2)

www.literature.tsuull.uz

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti

Bosh muharrir: Shuhrat Sirojiddinov

Bosh muharrir o'rincbosarlari: Nurboy Jabborov
Bahodir Karimov

Mas'ul kotib: Sohiba Madirimova

Tahrir kengashi

Nusratulla Jumaxo'ja, Iqboloy Adizova, Abdulla Ulug'ov, Dilnavoz Yusupova, Islom Yoqubov, Qo'lidosh Pardayev, Umida Rasulova, Akrom Dehqonov, Olim To'laboyev, Tozagul Matyoqubova, Shermuhammad Amonov, Shahlo Hojiyeva, Orzigel Hamroyeva, Ilyos Ismoilov, Sohiba Umarova, Gulbahor Ashurova, Ilhom Sayitqulov, Gulzoda Soatova, Dildora Rahmonova, Zilola Shukurova, Furqat To'xtamurodov, Sarvinoz Rasulova.

Jurnal haqida ma'lumot

"Adabiyotshunoslik" – "O'zbekiston: til va madaniyat" jurnalining adabiyotshunoslik yo'nalishidagi seriyasi bo'lib, yilda to'rt marta nashr etiladi.

Jurnalning **"Adabiyotshunoslik"** seriyasida o'zbek va jahon adabiyoti tarixi, xalq og'zaki ijodi, adabiyot nazariyasi, o'zbek mumtoz adabiyotining qo'lyozma manbalari va matnshunoslik muammolari, jadidchilik va jadid adabiyoti, zamonaviy adabiy jarayon, adabiy tanqid hamda qiyosisy adabiyotshunoslik yo'nalishidagi eng yangi tadqiqotlar e'lon qilinadi. O'zbek va jahon adabiyotshunosligi erishgan so'nggi yutuqlari aks etgan ilmiy maqolalarni nashr etishga alohida diqqat qaratiladi. Maqolalarning ilmiy saviyasi va tahliliy quvvati yuqori bo'lishiga e'tibor beriladi.

"Adabiyotshunoslik" seriyasida O'zbekiston va xorijiy davlatlarning e'tirof etilgan atoqli olimlari, oliy o'quv yurtlari professor-o'qituvchilari, doktorantlar, mustaqil izlanuvchilar hamda magistrantlarning ilmiy maqolalari nashr etiladi.

"Adabiyotshunoslik" seriyasi 2022-yil yanvar oyidan chiqqa boshlagan.

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti.

O'zbekiston, Toshkent, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko'chasi, 103.

Email: adabiyotshunoslik2022@gmail.com

Website: www.uzlc.navoiy-uni.uz

www.literature.tsuull.uz

MUNDARIJA

MUMTOZ ADABIYOT TARIXI

Dilnavoz Yusupova	Samarqand shahri ikki buyuk siymo talqinida	5
Sohiba Umarova	Sa'diy Xorazmiy devoni nusxalari va janrlar tarkibi	16
Olimjon Abdullayev	Balog'at ilmi rivojida arab sheriyatining o'rni.....	27
Muattar Axmedova	O'rta Osiyoda agiografik asarlarning o'rganilishi	47
Asadullojon Aminjonov	Sharq adabiy merosida tafsir ilmining shakllanishi, metodologiyasi va yurtimizda yetishib chiqqan soha yetakchilari	58
Xafiza Abduraimova	Alisher Navoiy g'azaliyotida Xizr va Masih obrazlari talqini	75
Sarvinoz Qurbonova	Nodim Namangoniyning poetik mahorati	88
Dilnavoz Sattorova	Sa'diy lirkasi kiritilgan to'plam-bayozlar tavsifi	102
Firuza Ibragimova	"Devoni Faqiriyl Xorazmiy" qo'lyozma devonining dastxat nusxasi ...	117
Dilafruz Bozorboyeva	Pahlavonquli Ravnaq hayoti va lirk merosi	130
Mahliyo Rasulova	"Hayrat ul-abror" dostoni hikoyatlaridagi tasavvufiy mazmunning badiiy talqini	141
Rayhon Norqulova	"Yo'qotganlarim va topganlarim" asarida ustozlar yodi	151
Charos Kuvondikova	Furqat ijodining o'rganilishi haqida ba'zi mulohazalar	160
ZAMONAVIY ADABIYOT MUAMMOLARI		
Abdulla Ulug'ov	Adabiy qahramon – insонning adabiyotdagi obrazi	168

Sitorabonu Ataullayeva	
Abdulla Qahhor va Ketrin Mensfild hikoyalarida ruhiyat va tabiat tasviri	202
Dilnoza Sayfullayeva	
“Sariq devning o‘limi” romanidagi obrazlarning biografik asosi	214
Umida Abdullayeva	
Expressive Description of London and Market in Dickens’ Novel Oliver Twist	224

“Sariq devning o’limi” romanidagi obrazlarning biografik asosi

Dilnoza Sayfullayeva¹

Abstrakt

Mazkur maqolada Xudoyberdi To’xtaboyevning “Sariq devning o’limi” romanidagi obrazlarning biografik asoslari tahlil etilgan. Unda adibning hayoti, shaxsiy tajribalari, oilaviy xotiralari hamda ruhiy kechinmalari asardagi obrazlar orqali badiiy talqinda ifodalangani ilmiy asosda yoritilgan. Xususan, bosh qahramon Hoshimjonning bolalik xotiralari, uning buvisi, singillari, ustozlari va orzulari yozuvchining hayoti bilan chambarchas bog’langan. Shuningdek, Salim Otajonov obrazi prototipi, jinoyatga qarshi kurashish g’oyasi, sehrli qalpoqcha motivi orqali yozuvchining ichki dunyosi, orzu-umidlari va jamiyatga bo’lgan munosabati ochib beriladi. Maqolada biografik metod asosida obrazlar tahlili orqali asarning axloqiy-falsafiy mazmuni yoritilib, yosh avlodni adolat, haqiqatparvarlik va halollik ruhida tarbiyalashdagi o’rni ochib berilgan.

Kalit so’zlar: *biografik metod, adolat, sehrli qalpoqcha, bolalar adabiyoti, obraz tahlili, poraxo’rlik, jinoyatchilik.*

Kirish

Dunyo adabiyotida biografik metod tarixini, namoyandalarini, imkoniyatlarini, yutuqlarini o’rganish badiiy asarlarni o’ziga xos tarzda tahlil qilish imkoniyatini beradi.

Biografik metod yordamida badiiy asar ijodkorning shaxsiy hayoti, psixologiyasi bilan chambarchas holda o’rganiladi. Bu metod ilk bor fransuz tanqidchisi va shoiri Sharl Ogyusten Sent-Byov (1804-1869) tomonidan tatbiq etilgan. Sent-Byov asarni anglash uchun muallifning hayotini o’rganish kerak deb hisoblagan. U o’zining “Adabiy portretlar” («Литературные портреты». Критические очерки. М.1970) asarida fransuz adabiyoti vakillari Volter, Didro, Bomarshe, Shatobrian, Gyugo, Gyustav Folberlar ijodini biografiyasi

¹ Sayfullayeva Dilnoza Dilshod qizi – o’qituvchi, Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti.

E-mail: delmuradova@bk.ru

ORCID ID: 0009-0007-5519-629X

Iqtibos uchun: Sayfullayeva, D. “Sariq devning o’limi” romanidagi obrazlarning biografik asosi. *O’zbekiston: til va madaniyat.* 2025, 1 (2): 214-223.

DOI: 10.52773/tsuull.uzlc.2025.1.2/NMHV8275

bilan butunlikda talqin qiladi.

Masalan, Gyustav Flober (1821-1880)ning “Bovari xonim” asarini tahlil qilar ekan, romanda adib hayoti bilan bog’liq bir qancha biografik elementlarni sanaydi: Floberning shifokor oilasida tug’ilgani uchun tibbiyot olamini yaxshi tasvirlab berishi, bolaligining Ruan va Kruasse shaharlarida (roman voqealari ro’y berayotgan, yozuvchi tomonidan yaratilgan xayoliy Yonvil shahri) o’tishi shular jumlasidandir.

Keyinchalik bu metodga o’zbek adabiyotida ehtiyoj sezila boshladi. Boisi adabiyotshunos olim Abdug’afur Rasulov ta’kidlaganidek, “asarlar sinchiklab o’rganilsa, ular yozuvchi holati, ruhiyati haqida ko’p narsalar so’zlab beradi”. [Rasulov A. T. 1998; 27]

O’zbek adabiyotida Abdulla Qahhorning “O’tmishdan ertaklar”, Oybekning “Bolalik”, Xudoyberdi To’xtaboyevning “Jannati odamlar”, “Besh bolali yigitcha” romanlarini biografik metod yordamida o’rganish mumkin. Naim Karimovning “Cho’lpon”, Umarali Normatovning “Sarguzasht sardori”, Abdug’afur Rasulovning “G’aroyib saltanat” asarlari biografik metodda yozilgan tadqiqotlar jumlasidandir.

Asosiy qism

Xudoyberdi To’xtaboyevning “Sariq devning o’limi” romani o’zbek bolalar adabiyotining eng sara asarlaridan biri bo’lib, unda yosh avlodniadolat, haqiqat va mehnatsevarlikka undovchi chuqur falsafiy mazmun mujassam. Romanda ijtimoiy hayot, jinoyat vaadolat mavzulari yoritiladi. Asardagi har bir qahramon o’ziga xos xarakterga ega bo’lib, ularning barchasi o’zining ijtimoiy va axloqiy vazifasini bajaradi. Jumladan, Hoshimjon obrazidaadolat, Salim Otajonov timsolidan tajriba va fidoyilik bo’lsa, Odil Abbosov obrazi orqali esa jinoyatchilik va poraxo’rlikning fojiali oqibatlari aks etadi. Romandagi sehrli qalpoqcha motiviadolatga xizmat qiluvchi vosita sifatida talqin qilinadi.

“Sariq devning o’limi” romanida ham adib hayotiga oid avtobiografik elementlar uchraydi: 1. Bosh qahramonning tarbiyasida, yetuk inson bo’lib shakllanishida buvisining roli katta. Maktabga ketishdan avval ham, u yerda ham Hoshimjon ko’proq buvisi bilan yaqin bo’ladi. “Kechasi buvijonim ancha mahalgacha uqlamay bosh tomonimda o’tirib, sochlardan siladi, peshonamdan qayta-qayta o’pdi. – Obbo, tentagim-ey, shunday qilib bizni yana tashlab ketar ekansan-da? – dedi u negadir yig’lamsirab. – Tashlab ketaman, buvijon. – Tez-tez xat yozib turgin. – Xo’p boladi,

buvijon. – Bemahalda ko'chaga chiqmagin. – Yaxshi. – Astoydil o'qib, odam bo'lish payidan bo'lgin. – Aytganingizni qilaman, buvijon. – Bema'ni bolalar bilan yurmagin. – Xo'p. – O'zingdan katta ish buyursa, yo'q demagin. – Hech yo'q demayman. – Ko'ylaging kir bo'lsa, oqshom yuvib qo'y". [To'xtaboyev X. T.2017; 18] 2. Hoshimjonning singillari Oyshaxon va Donoxon esa muallifning o'z singillarining ismi. 3. Salimjon Otajonov obrazi esa marhum polkovnik Rahimjon Otajonovning prototipidir. 4. Jurnalistlik faoliyati davrida professor Umarali Normatov bilan suhbatli chog'ida sehrli qalpoqchasi bo'lishini-yu uni kiyib olib jinoyatchilarning kirdikorlarini oshkor qilish istagi mavjudligini aytgani haqidagi ma'lumotni "Sarguzasht sardori" asarida o'qish mumkin. 5. Hoshimjonning bolalar bilan yaxshi chiqishib, ularning ko'nglidan joy olishi ham adib xarakteriga xos xususiyatdir. 6. Yosh kuch jurnalidagi suhbatlardan birida yozuvchi: "Hoshimjon – bu mening o'zim, bolalikdagi orzularim, shodliklarim, shumliklarim, armonlarim. Yozayotganimda biror voqeani o'ylab topganim yo'q, turli-tuman voqealar, quvliklaru shumliklar o'z-o'zidan oqib kelavergan. Bir o'rinda qiqirlab kulib, chopqillab ko'chaga chiqib ketardim, boshqa bir o'rinda Hoshimjon yig'lasa, men ham qo'shib yig'lardim. Hozir ham gohida Hoshimjonga aylanaman, goh sakson yoshli Xudoyberdi bobo bo'lib qolaman", – deb ta'kidlaydi. 7. Romandagi illatlarga qarshi kurashishning sehr yo'li bilan olib borilishi ham biografik negiz asosiga qurilgan. Otasiz katta bo'lgan adib hamma ishga sehr bilan erishishni ko'p o'ylaganini, bir umr otasining o'rni huvullab qolgani uchun ham asarda Hoshimjonning otasi uncha ko'rinnmasligini xotiralarida eslaydi. 8. Maktabda o'qitgan o'quvchilarining oqko'ngillik, quvlik, yolg'onchilik va dangasalik, xayolparastlik, dadillik va qat'iyatlilik xususiyatlarini qorishtirib Hoshimjon obrazini yaratganini ham suhbatlarning birida aytib o'tgan. 9. Ma'lumki, Xudoyberdi To'xtaboyev maktabda o'qituvchi sifatida ham faoliyat yuritgan. Ali va Mahmud ismli o'quvchilarining bir sehr kuchi yordamida qaytadan 5-sinf o'quvchisi bo'lib qolish istaklarini harbiy xizmat vaqtida yozib yuborishlari dangasa qahramonga sehrli qalpoqcha kiygizib dunyoni sayohat qildirish fikrining tug'ilishiga sabab bo'ladi. 10. Yoshligida ishyoqmas, dangasa bo'lgani uchun ulg'aygach biron ishga layoqati bo'limganidan laganbardor, tovlamachi bo'lib qolgan shaxslar bila yuzma-yuz uchrashgani Hoshimjonning dangasalikni yengib o'tgan qahramon sifatida yaratilishiga turtki bo'lgan.

Hoshimjon – oddiy yigitdan matonatli militsionerga aylangan qahramon

Hoshimjon asarda haqiqiy adolatparvar qahramon sifatida tasvirlangan. U haqiqatni izlash, jinoyatchilikka qarshi kurashish va insoniy fazilatlarni o’zida mujassam qilish yo’lida katta sinovlardan o’tadi.

Hoshimjonning o’z taqdirini belgilashga bo’lgan intilishi asarning dastlabki sahifalaridan oq seziladi: “Shunday qilib desangiz, ishlarim yurishgandan yurishib ketaverdi, o’zi men shunaqa bolaman-da, qaysi ishni ixtiyor qilsam, albatta, maqsadimga yetaman”. [To’xtaboyev X. T.2017; 3] Bu qahramonning o’z oldiga maqsad qo’yish va unga erishish yo’lida qat’iy ekanligini ko’rsatadi. Hoshimjonning hayotga bo’lgan ishonchi va intiluvchanligi unga og’ir sinovlardan o’tish imkoniyatini beradi.

Hoshimjonning sartarosh bo’lish istagi bolaligidagi orzularidan biri sifatida tasvirlangan bo’lsa-da, u hayotda o’z yo’lini topish jarayonida muhim tajriba orttiradi. U sartarosh ustasi Akrom buva bilan ishlash orqali mehnatning qadriga yetadi. “Men sartarosh bolishga qaror qildim. Bilasiz-ku, biror ishga ahd qilsam, uni oxiriga yetkazmaguncha qo’ymayman”. [To’xtaboyev X. T.2017; 5] Bu holat Hoshimjonning fe’l-atvorini yaqqol ko’rsatadi: u har qanday boshlagan ishini oxiriga yetkazadigan, sabr-toqat bilan mehnat qiladigan insondir. Ammo sartaroshlik qahramonga faqat vaqtincha hayotiy tajriba beruvchi bosqich sifatida tasvirlangan.

Hoshimjon obrazi adolatparvarlik tamoyillariga asoslangan. U bolaligidan haqiqat uchun kurashadi, firibgarlarni fosh qilishga intiladi (Soraxon folbining yolg’onchilagini, Yong’oq qori pochchaning kirdikorlarini oshkor qilib, ashaddiy jinoyatchi Sultonovni qo’lga tushirishga yordam beradi) va yovuzlik ustidan g’alaba qilishni o’zining asosiy maqsadi deb biladi: “Serjant Hoshimjon Ro’ziyev ish boshladi! Mana endi, jamoat mulkiga ko’z olaytiradiganlar bo’lsa, navbatil bilan ta’zirini yeyaveradi!”. [To’xtaboyev X. T.2017; 25] Bu so’zlardan uning shaxsiyati shakllangani va jamiyatdagi adolatsizliklarga qarshi kurashish yo’liga o’tgani anglashiladi. Yozuvchi uni chinakam jasur qahramon sifatida tasvirlaydi.

Asarning boshlang’ich qismida Hoshimjon yosh, tajribasiz bo’lsa-da, adolatparvarlik hissi kuchli ekanligi bilan ajralib turadi. Yigitcha dastlab bir qator xatolarga yo’l qo’yadi, o’zining kuch va imkoniyatlarini haddan ziyod baholaydi. Odil Abbosovning ta’biri bilan aytganda “yosh, olov” bo’lgan Hoshimjonga shoshqaloqligi

pand beradi. Jinoyatchilikni kasb qilib olgan Odil Abbosov "shogirdlari" bilan birligida uni tuzoqqa tushiradilar. Lekin shu pand yeganining ortidan katta jinoyatlar ochiladi. Ammo oshxonada bo'lgan voqeani Hoshimjonga qarshi dalil sifatida qo'llab, undan shikoyat qiladilar. Buning sababi Hoshimjon militsiya formasida kelib, o'zining kim ekanini oshkor qiladi. Shundan so'ng Hoshimjonni mast qilib, uni oshxonada bezorilik qilib pora solganlikda ayblaydilar: "O'rtoq Otajonov Ortiqovga so'z berdi. soat beshlarda, — o'rnidan turgani erinib, sekin gap boshladi Ortiqov, — oshxonadan telefon qilib, bizga o'rtoq Otajonov kerak, deyishdi. Men u kishi yo'q dedim. Unda o'zingiz keling, xodimlaring serjant Ro'ziyev to'polon qilib, hammamizni qiynab yubordi, dedi. Darrov yetib bordim. O'rtoq Ro'ziyev divanda o'chib yotibdi, direktor qo'limga mana bu aktni berdi". [To'xtaboyev X. T.2017; 33] Dalolatnomaga direktor, oshpazlar hamda bufetchi tomonidan tuzilgan bo'lib, unda Hoshimjonning alohida xonada ziyofat, shikoyat xatini yo'q qilish uchun 300 so'm pul so'ragani, pulni olgandan so'ng yana 100 so'm talab qilgani yozilgan edi. Eng achinarlisi, Hoshimjonning cho'ntagidan dalolatnomada yozilganidek roppa-rosa 300 so'm pul chiqadi. Bu voqeal Salim Otajonovning quyidagi gapini isbotlaydi: "OBXSS bo'limi juda og'ir bo'lim. Nima ko'p desang, hozir jamoat, davlat mulkiga ko'z olaytiruvchilar ko'p. Ular shunaqangi ustaki, hushyor bo'lmasak, sen bilan mening boshimizga qalpoq kiygizib ketishadi". [To'xtaboyev X. T.2017; 24] Buning ustiga Odil Abbosov OBXSS bo'limi ustidan ham vazirlikka shikoyat qiladi. Bo'lib o'tgan voqealar Hoshimjonni yanada kuchli bo'lishga, haqiqat, adolat uchun kurashishga turtki bo'ladi.

Hoshimjon bilan ro'y bergan noxush hodisalar bu bilan chegaralanmaydi. Kechqurun ko'chada aylanib yurganida jarlik tomonda 4 yigit va 1 qizdan iborat guruh (Eng qizig'i, guruohning rahbari ham Odil Abbosov edi) uni yechintirib, pullarini o'g'irlaydilar. Bu guruh Hoshimjondan keyin yana 2 kishini talaganini Hoshimjon Salim Otajonovdan eshitadi. So'ngra kiyimsiz yurgani uchun Hoshimjon jinnixonaga tushib qoladi. Bu detal adibning "Mungli ko'zlar" romanida ham uchraydi, ya'ni insonlar haqiqat uchun kurashadiganlarni xushlamaydilar. "Mungli ko'zlar"dagi Zafar ham nohaqliklarga qarshi kurashmoqchi bo'lgani uchun jinnixonaga tushib qoladi. Bu adabiyotdagi devona motivi bilan bog'liq. Hoshimjon va Zafar esa bu obrazning zamonaviy ko'rinishidir.

Asarda jinoyatga qarshi kurash jinnixonada ham davom etadi. "Sariq oltin jinnisi" Olim ismli yigit tovlamachi bo'ladi. 3

marta qamalib, har gal mehnat daftarchasini yangilab, xuddi qamalmagandek ish boshlayveradi. Omborxonadagi kamomad 80ming so’mga yetganidan so’ng kasalxonaga joylashib oladi. Militisiya boshqarmasining xodimi Orif Asomov ham o’zini ruhiy kasal deb ko’rsatib, jinoyatchini kuzatadi va uning sheriklarini aniqlab, qo’lga oladi.

Hoshimjon obrazi “Sariq devning o’limi” romanidaadolat va mehnatsevarlik timsoli sifatida gavdalanadi. Uning haqiqatni izlashga bo’lgan ishtiyoqi, aql va tafakkuri, mustaqil qarorlar qabul qilish qobiliyati uni o’zbek adabiyotining eng yorqin qahramonlaridan biriga aylantiradi. Sehrli qalpoqcha esa ushbu obrazningadolat yo’llidagi intilishlarini kuchaytiruvchi ramziy vosita sifatida romanning badiiy jozibasini oshiradi. Hoshimjonning shaxsiyati orqali yozuvchi yosh kitobxonlarni haqiqat, halollik va bilim sari yo’naltirishga intilgan.

Salim Otajonov – fidoyi va jasur militsiya xodimi

Salim Otajonov – novcha bo’yli, ko’kraklari keng, yuzi cho’zinchoqdan kelgan, o’ng betida chandig’i bor, peshonasi keng, ko’z qarashi goh erkalayotgandek, goh so’roq qilayotgandek bo’lgan kishi: Xiyol o’tmay xonaga novcha bo’yli, ko’kraklari keng 55-60 yoshlardagi bir odam bosh yalang kirib keldi. Ali Usmonov bilan so’rashib, menga bir ko’z tashlab qo’ydi. Yuzi cho’zinchoqdan kelgan, o’ng betida chandig’i bor, peshonasi keng, tepe sochi tushib ketibdi. Ko’zları, negadir sal g’alatiroq boqadi. Bir qarashda kishini erkalatayotgandek, yana bir qarashda: “To’xtab tur, sen o’zing kim bo’lasan?” deb so’rayotgandek tuyuladi. Ikkala ko’zi bilan baravar tikilsa, xuddi birov ko’kragingga to’pponcha qadagandek, qo’rqib, beixtiyor o’ringdan turib ketasan. Lablari kulib turibdi-yu, ammo yuraginiqqa’rida senga nisbatan yashirin g’azabi borga o’xshaydi”. [To’xtaboyev X. T.2017; 23]

Salim Otajonov romanda o’z xizmatiga sadoqatli, jasur va halol militsiya xodimi sifatida tasvirlangan. Uadolatni himoya qilishda o’z hayotini xavf ostiga qo’yishga tayyor inson sifatida gavdalanadi. Salim Otajonov faqatgina jinoyatchilarni qo’lga olish bilan emas, balki yosh avlodga to’g’ri yo’l ko’rsatish bilan ham shug’ullanadi: “Militsiyaga faqat musht o’ynatish uchun emas, haqiqatni aniqlash vaadolat o’rnatish uchun kirish kerak. Kimdir o’g’ri bo’lsa, u nafaqat bizga, balki butun jamiyatga zarar yetkazadi.”

Bu Salim Otajonovning prinsipial shaxs ekanligini tasdiqlaydi. U jamiyatda tartib o’rnatish uchun kurashadi va yosh Hoshimjonni ham haqiqat uchun kurashishga undaydi.

Salim Otajonov tog'li tumanda yashab, tergov bo'limida ishlagan vaqtin tuman markazidagi pilla qabul qiladigan bir punktda katta jinoyatlar bo'layotganini sezib qoladi. Uni fosh qilish Salim Otajonovga topshiriladi. Nihoyat, bir kun jinoyatchilarning iziga ham tushadi. Shahardagi shoyi to'qiydigan kichkina artel bilan aloqalari bor ekan. Artellar, o'z navbatida, magazin bilan muomalada bo'lib, yashirincha to'qilgan atlaslarni o'z magazinlarga chiqarib pullashar ekan. Yigirmaga yaqin odam qamalishi kerak edi. Bir kun pochtadan xat kelib qoladi. "Salim, bizni tinch qo'y, bo'lmasa avlod bilan qirib yuboramiz. Axir, hammamizni qamay olmaysan-ku!" deb yozilgan edi. Salim Otajonov ishni to'xtatmagani uchun uning ikki qizalog'ini uyida yoqib yuboradilar. Bu ishni ham Odil Abbosov qiladi. Odil Abbosov qamalgan ikki akasi va otasining o'chini shunday oladi. Odil Abbosovning Salim Otajonovga nisbatan dushmanligi 35yillik tarixga ega bo'ladi. Salim Otajonovning o'g'li Karimjon vafot etgan ikki qizalog'idan so'ng tug'ilgani uchun erka bo'lib o'sadi. Oqibatda Karimjon otasining to'pponchasini o'g'irlab, do'stlari bilan karta o'yinida yutqazgani uchun do'sti Tolibga beradi. Tolib esa tilla do'kon qorovulidan yigirmata oltin tangani o'g'irlab, qorovulni otib o'ldiradi. Salim Otajonov haqiqat uchun, jinoyatning oldini olish uchun o'z o'g'li Karimjonni qamatadi.

Salim Otajonov obraqi adulat, jasorat va fidoyilikning yorqin timsolidir. U jinoyatchilikka qarshi kurashuvchi halol miliitsioner bo'lib, yosh Hoshimjon uchun ustoz va murabbiy vazifasini bajaradi. U o'zining shaxsiy misolida jamiyatning kelajagi uchun kurashishning naqadar muhimligini ko'rsatadi. Salim Otajonov obrazining badiiy yuksakligi va realistik tasviri uni romanning eng muhim qahramonlaridan biriga aylantiradi. Uning qat'iyati, halolligi va xalq xizmatiga bo'lgan fidoyiligi yosh avlod uchun ibrat bo'lib qoladi.

Odil Abbosov – poraxo'rlik va jinoyatchilikning ko'rinishi

Odil Abbosov obrazida jamiyatni ich-ichidan yemiruvchi jinoyatchilik va poraxo'rlik aks etgan. U boylik orttirish yo'lida hech narsadan tap tortmaydigan, ochko'z va qallob shaxs sifatida namoyon bo'ladi.

Odil Abbosov – "Rohat" oshxonasining direktori. Haqiqiy "sariq dev". Nega aynan Sariq dev, Sariq oltin jinnisi, "Rohat" oshxonasiga tegishli hujjatlar ham sariq papkada saqlanadi. Ma'lumki, sariq – jigardagi jiddiy salbiy o'zgarishlar tufayli teri, ko'z oqining sarg'ayishidan iborat og'ir va yuqumli kasallik nomi; gepatit. Sariq kasalligi hamdir. Sariq dev bo'lgan Odil Abbosovning

kirdikorlari ham atrofdagilariga yuqib, illatlar butun shaharga tarqagan edi. Bundan tashqari yozuvchi u bilan bo'lgan suhbatlardan birida "Sariq dev"ning ziyon-zahmati ko'p degan gapning qulog'iga mahkam o'rashib qolganini ta'kidlaydi.

"Bu yerga o'g'rilik, poraxo'rlik, yulg'ichlik, tuhmatchilik, qotillik, qalloblik, ochko'zlik, manmanlik, maishatparastlik, xudbinlikdan iborat sarqitlar yig'indisi – Odil battol Abbosov ko'mildi. Tug'ilgan yili ma'lum emas, 14-iyulda, tong pallasida joni uzildi!" [To'xtaboyev X. T.2017; 269]

Bunda Odil Abbosovning yovuz xarakteri yaqqol ko'rindi. U o'zining xudbinligi va poraxo'rligi sabab oxir-oqibat qilmishining jazosi sifatida sharmandali tarzda halok bo'ladi.

Sehrli qalpoqcha –adolat va haqiqat ramzi

Romandagi eng qiziq badiiy unsurlardan biri bu sehrli qalpoqcha motividir. Sehrli qalpoqcha Hoshimjonning jinoyatchilarni fosh etishida muhim vosita bo'lib xizmat qiladi: "Shaharga tushishim bilan qimmatli qalpoqchamni boshimga kiyib, o'zimni bir sinab ko'rmoqchi bo'ldim. Mana, kiydim... mana, ko'zdan g'oyib ham bo'ldim. – Salom, qalpoqcham! – dedim quvonib. – Salom, Hoshimjon, – dedi do'stginam. – Meni rosa kutdingmi-a? – Betoqat kutdim, Hoshimjon. – Menga yana yordaming kerak. – Niyating yaxshi bo'lsa, hech narsani ayamayman. – Men jamiki jinoyatchilarni tugatmoqchiman, aziz qalpoqcham! – Men hamisha yordamchingman, quvnoq Hoshimjon". [To'xtaboyev X. T.2017; 94] Bu qalpoqcha yordamida qahramon jinoyatchilarning hiyla-nayranglarini ilg'ay oladi. Voqealar rivoji mobaynida sehrli qalpoqcha Hoshimjonga o'rinli maslahatlar ham berib boradi: "– Ishni nimadan boshlay, dono maslahatchim?

- "Baxtiqaro" direktorning orqasidan bor, qiziqli do'stim.
- Rahmat, qalpoqcham.
- Arzimaydi, Hoshimjon...
- Rahmat, qalpoqcham! – deb shivirlayman.
- Rahmatga hali erta, – deydi qalpoqcham ham shivirlab, – ishning kattasi mana endi ochiladi" [To'xtaboyev X. T.2017; 94]

"Sehrli qalpoqcha ham xursand. Hammayoq xursandchilik!".

Sehrli qalpoqcha –adolat va haqiqatning ramzi bo'lib, u faqat o'z vazifasiga sodiq qolgan kishigagina yordam beradi. Bu motiv xalq og'zaki ijodidagi sehrli buyumlar an'anasisiga mos keladi va axloqiy mazmun kasb etadi. U faqat haqiqat uchun kurashayotgan qahramonga xizmat qiladi, bu esa yozuvchining haqiqatga bo'lgan ishonchini ko'rsatadi.

Xulosa

Xudoyberdi To'xtaboyevning "Sariq devning o'limi" asari yosh kitobxonlarniadolat, mardlik va ilmiy tafakkur sari undaydigan asarlardan biridir. Hoshimjon obraqal haqiqatni targ'ib qilish, Salim Otajonov orqali murabbiylit va o'git berish, Odil Abbosov orqali esa axloqsizlikning fojiali oqibatlari ochib berilgan. Sehrli qalpoqcha esaadolat va haqiqatga xizmat qiluvchi vosita sifatida talqin etiladi. Ushbu asar o'zbek adabiyotida sarguzasht, detektiv va axloqiy yo'naliishlarning uyg'unligiga misoldir.

Adabiyotlar

- Rasulov A. (2008). Faroib saltanat. Жаҳон адабиёти журнали. 6-сон.
 Rasulova, S. The Nature of Fantastic Stories.
- Rasulova U. (2023). CHANGES IN LITERARY CRITICISM //Science and Innovation. – Т. 2. – №. 5. – С. 39-41.
- Rasulova U. (2021). Devotees of knowledge //Asian Journal of Multidimensional Research. – Т. 10. – №. 10. – С. 1270-1274.
- Rasulova U. (2020). THE EXPRESSION OF DIVINE LOVE IN CURRENT STORIES //Конференции.
- Sayfullayeva D. (2023). THE ROLE OF MONOLOGUE AND DIALOGUE IN KHUDOYBERDI TOKHTABAEV'S NOVEL "MUNGLI KOZLAR" //Science and innovation. – Т. 2. – №. C10. – С.154-158.
- Tulabayeva, R.S. (2022). "Yozuvchi biografiyasi va bola ruhiyati o'ziga xosligi". "O'zbekiston: til va madaniyat". 2(2): 54-62.
- Abdulla, U. O. STORIES OF KHAYRIDDIN SULTANOV.\
- Улугов, А. (2023). Xayriddin Sulton asarlarida hayot hodisalarining aks ettirilishi. Узбекистан: язық и культура. Литературоведение., 2(2), 4-22.
- Ulug'ov, A. (2003). Tiniq tasvirlar ta'siri. Sharq Yulduzi, 4.
- Ulug'ov, A. (2021). Stories of khayriddin sultanov. *Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities*, 11(12), 295-305.

The biographical basis of the characters in the novel "Sariq devning o'limi" ("The Death of the Yellow Giant")

Dilnoza Sayfullayeva¹

¹ Sayfullayeva Dilnoza Dilshod qizi – teacher. The University of World Economy and Diplomacy.

E-mail: delmuradova@bk.ru

ORCID: 0009-0007-5519-629X

For citation: Sayfullayeva D. The biographical basis of the characters in the novel "Sariq devning o'limi" ("The Death of the Yellow Giant"). *Uzbekistan: Language and Culture*. 2025, 1 (2): 214-223.

Abstract

This article analyzes the biographical foundations of the characters in Khudoyberdi To'xtaboyev's novel "Sariq devning o'limi" ("The Death of the Yellow Giant"). It explores how the author's life, personal experiences, family memories, and emotional states are artistically reflected through the characters. In particular, the childhood memories of the protagonist Hoshimjon—his relationship with his grandmother, sisters, mentors, and dreams—are closely linked to the author's own life. The character of Salim Otajonov is based on a real-life prototype, and the themes of fighting crime and the use of a magical hat as a symbol of justice reflect the writer's inner world, aspirations, and social perspective. Using the biographical method, the article reveals the novel's moral and philosophical depth and highlights its role in encouraging younger generations to uphold values of justice, truthfulness, and integrity.

Keywords: *biographical method, justice, magical hat, children's literature, character analysis, corruption, crime.*

References

- Rasulov, A. (2008), "G'aroyib sultanat" "Jahon adabiyoti" jurnali, 6-son.
- Rasulova, S. The Nature of Fantastic Stories.
- Rasulova U. (2023). CHANGES IN LITERARY CRITICISM //Science and Innovation. – T. 2. – №. 5. – C. 39-41.
- Rasulova U. (2021). Devotees of knowledge //Asian Journal of Multidimensional Research. – T. 10. – №. 10. – C. 1270-1274.
- Rasulova U. (2020). THE EXPRESSION OF DIVINE LOVE IN CURRENT STORIES //Конференции.
- Sayfullayeva D. (2023). THE ROLE OF MONOLOGUE AND DIALOGUE IN KHUDOYBERDI TOKHTABAEV'S NOVEL "MUNGLI KOZLAR" //Science and innovation. – T. 2. – №. C10. – C.154-158.
- Tulabayeva, R.S. (2022). "Yozuvchi biografiyasi va bola ruhiyati o'ziga xosligi". "O'zbekiston: til va madaniyat". 2(2): 54-62.
- Abdulla, U. O. STORIES OF KHAYRIDDIN SULTANOV.\
- Улугов, А. (2023). Xayriddin Sulton asarlarida hayot hodisalarining aks ettirilishi. Узбекистан: язық и культура. Литературоведение., 2(2), 4-22.
- Ulug'ov, A. (2003). Tiniq tasvirlar ta'siri. Sharq Yulduzi, 4.
- Ulug'ov, A. (2021). Stories of khayriddin sultanov. *Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities*, 11(12), 295-305.

MAQOLA TAQDIM QILISH TALABLARI

O'zbekiston: til va madaniyat (O'zTM) – zamonaviy O'zbekiston (sobiq Turkiston) bilan bog'liq bevosita Markaziy Osiyo mintaqasini birlashtiradigan til, tarix, san'at, etnografiya, madaniyat va ijtimoiy fanlar sohalarini qamrab olgan ilmiy jurnaldir. O'zTM munozarali, zamonaviy, innovatsion, konseptual jihatdan qiziqarli, original mavzudagi ilmiy tadqiqotlarni nashr qiladi. Jurnal lingvistika, adabiyotshunoslik, tarjimashunoslik, din, falsafa, ilohiyot, fan, ta'lif, metodika, sotsiologiya, psixologiya, tarix, madaniyat, san'at, etnologiya, etnografiya, antropologiyaga oid ilmiy yo'nalishdagi maqolalar va taqrizlar hamda konferensiya hisobotlarini qabul qiladi.

I. Maqola taqdim etish uchun umumiy talablar

Qo'lyozmalar o'zbek, ingliz, rus, fors, shuningdek, boshqa turkiy tillarda ham qabul qilinadi. Agar muallif o'z maqolasini jurnalning muayyan sonida nashr ettirmoqchi bo'lsa, unda qo'lyozma jurnal nashridan kamida besh oy oldin taqdim etilishi lozim.

Qo'lyozmalar MS Word (.doc) formatida (uzlangcult@gmail.com) elektron pochtasiga yuboriladi. Iqtiboslar va izohlar uchun MS Word menejerini qo'llash mumkin.

Barcha qo'lyozmalar tahririyatga muallif (mualliflar) haqidagi qisqacha ma'lumot bilan taqdim etiladi.

Asosiy matn *Times New Roman* shrifti, 14 hajm, satr oralig'i 1 interval, hoshiyalar chapdan 3 sm, o'ngdan 1,5 sm, yuqori va pastdan 2 sm bo'lishi kerak.

Maqolalar *The Chicago Manual of Style, 16th Edition* formatida shakllantiriladi. Maqola matni 3 000–5 000 so'zdan iborat bo'lishi kerak.

O'zbek va ingliz tillarida 100–150 so'zdan iborat abstrakt (Abstrakt) va 5–10 so'zdan kam bo'limgan kalit so'zlar (o'zbek va ingliz tillarida). Abstraktda maqolaning qisqacha mazmuni va dolzarbliji, tadqiqot natijalari aks etishi lozim.

Adabiyotlar ro'yxati 5 sahifadan oshmasligi kerak.

Kitobga taqriz (ingliz yoki boshqa tillarda bo'lishi mumkin) 1500 so'zdan oshmasligi talab etiladi.

Taqriz formati: 1) sarlavha: kitob nomi, muallif (mualliflar), nashr qilingan shahar: nashriyot nomi, nashr yili, sahifasi soni. Narxi, ISBN raqami, (qattiq/yumshoq muqova); 2) taqriz so'ngida: taqrizchining F.I.O., ish joyi, pochta manzili.

II. Maqola bo'limlarini rasmiylashtirish

Maqola nomi – normal harflarda, to'q bo'yoqda, 16 hajm.

Maqola nomi o'zbek va ingliz tillarida (agar maqola boshqa tilda yozilgan bo'lsa, maqola yozilgan til va ingliz tilida) beriladi.

Maqola kirish, asosiy qism bo'limlari va xulosadan tashkil topadi.

Maqola bo'limlari sarlavhasi – to'q bo'yoqda, 14 hajm.

III. Maqolada tarjimalardan foydalanish

Boshqa tillardagi matn yoki boshqa manbalar tarjimoni aniq ko'rsatilishi kerak. Agar matn maqola muallifi tomonidan tarjima qilingan bo'lsa, u holda "tarjima muallifni" shaklida beriladi.

Rasmiy nashrdan olingan tarjima-matn tahrir qilinmaydi.

Zarur holatda tarjima matnga sana, turli diakritik belgilari va boshqa elementlar kiritilishi mumkin.

Tarjima qilingan matn olingan manba nomi asl holicha beriladi. Zarur deb topilsa, uning nomi qavs ichida berilishi mumkin.

Geografik nomlar tarjima qilinmaydi va asl shaklida beriladi.

Tashkilotlar nomi tarjima qilinmaydi va asl shaklida beriladi.

Davr nomi rasmiy qabul qilingan shaklda beriladi.

IV. Ko'chirma va tarjima parchaning berilishi

Manbadan olingan ko'chirma parcha asosiy matndan 1 qator tashlab ajratiladi, satr oralig'i 1 interval, markazda, 12 hajmda yoziladi.

Ko'chirmaning tarjimasini qavs ichida () satr boshidan yozilishi kerak. Bunday ko'chirma *Times New Roman* shrift, 12 hajm, normal yozuvda beriladi.

V. Havola va izohlar berish

Manbaga havola matn ichida to'rtburchak qavesda [] beriladi. Havola qilingan manbalar bir nechta bo'lsa, ular nuqtali vergul (;) bilan ajratiladi.

Izohlar tegishli sahifa pastida, tartib raqami bilan joylashtiriladi.

VI. Qo'lyozma (toshbosma) manbalar va nashr etilgan asarlar bibliografiyasi

Bibliografiyada muallif yoki asar nomi satr boshidan, boshqa barcha qatorlari xatboshidan yoziladi. Adabiyotlar *bibliografiyada* o'zbek lotin alifbosini tartibida ko'rsatiladi.

V.1. Qo'lyozma va toshbosma manbalar bibliografiyasi

Qo'lyozma yoki toshbosma manbalarni bibliografiyada o'zi yozilgan grafikada berish maqsadga muvofiq. Lotin alifbosidagi transliteratsiyasini berish ham mumkin. Ba'zan qo'lyozma asarning nomi muallif ismidan oldin yozilishi ham mumkin.

Muallif nomi. Ko'chirilgan asr (agar mavjud bo'lsa). Asar nomi. Qo'lyozma (toshbosma): saqlanayotgan joy, inventar raqam.

Xondamir. XV asr. Makorim ul-axloq. Qo'lyozma: O'zFASHI, № 742.

Matnda qo'lyozma (toshbosma)ga havola berish:

[Xondamir, Makorim, 17^a]

VII.2. Kitoblar uchun

Bibliografiyada:

Familiya, ism. Nashr yili. *Kitob nomi*. Shahar: Nashriyot nomi.

Qudratullayev, Hasan. 2018. *Boburning adabiy-estetik olami*. Toshkent: Ma'naviyat.

Matnda kitobga havola:

[Familiya kitob nashr yili, sahifa raqami]

[Qudratullayev 2018, 99]

Agar bir muallifning bir yilda nashr qilingan kitoblaridan foydalanilgan bo'lsa, bibliografiyada kitobning nashr yili o'zbek lotin alifbosi harflari bilan ajratilib ko'rsatiladi.

Sirojiddinov, Shuhrat. 2011 (a). *Alisher Navoiy: manbalarning qiyosiyatipologik, tekstologik tahlili*. Toshkent: Akademnashr.

Sirojiddinov, Shuhrat. 2011 (b). *O'zbekadabiyotining falsafiysarchashmalari*. Toshkent: Akademnashr.

Matnda kitobga havola:

[Sirojiddinov 2011 (a), 99]

[Sirojiddinov 2011 (b), 67]

Ikki muallif tomonidan yozilgan kitobni bibliografiyada berish tartibi:

Familiya, Ism va Ism Familiya. Nashr yili. *Kitobning nomi*. Shahar: Nashriyot nomi.

Abdurahmonov, G'anijon, Alibek Rustamov. 1984. *Navoiy tilining grammatik xususiyatlari*. Toshkent: Fan.

Matnda kitobga havola:

[Familiya va Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Abdurahmonov, Rustamov 1984, 52]

Agar kitobning uch va undan ortiq muallifi bo'lsa, bibliografiyada barcha mualliflarning ismi to'liq yoziladi. Bunday kitobga havola qilinganda, birinchi muallifning ismi yozilib, davomida *va boshqalar* deb ko'rsatiladi:

[Familiya va boshqalar nashr yili, sahifa raqami]

[Vohidov va boshqalar 2010, 847]

Kitob yoki to'plam maqolasini bibliografiyada berish tartibi:

Familiya, ism. Nashr yili. "Maqola nomi." *Kitob yoki to'plam nomi*, Ism Familiya, Ism Familiya muharrirligida, maqola sahifasi raqamlari. Shahar: Nashriyot.

Abdug'afurov, Abdurashid. 2016. "Badoye' ul-bidoya"ning tuzilish sanasi". *XX asr o'zbek mumtoz adabiyotshunosligi*, Olim To'laboyev muharrirligida, 174–184. Toshkent: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti.

Matnda kitob yoki to'plam maqolasiga havola:

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Abdug'afurov 2016, 176]

Elektron shaklda nashr qilingan kitoblar uchun:

Elektron kitobning bir nechta formati bo'lsa, bibliografiyada foydalanilgan format ko'rsatiladi. Elektron kitobning internet manzili (URL) hamda shu manba olingan sana ko'rsatilishi lozim.

Elektron kitobni bibliografiyada berish:

Familiya, Ism. Nashr yili. *Kitob nomi*. Shahar: Nashriyot nomi. URL. Foydalilanilgan sana.

Mamatov, Ulug'bek. 2018. *O'zbekiston madaniyatida tarixiy janrdagi tasviriy san'at asarlari*. Toshkent: Mumtoz so'z. <https://kitobxon.com/uz/catalog/sanat/>. 12.03.2019.

Matnda elektron kitobga havola:

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Маматов 2018, 11]

Ikki mualliftomonidan yozilgan elektron kitobni bibliografiyada berish tartibi:

Familiya, Ism va Ism Familiya. Nashr yili. *Kitobning nomi*. Shahar: Nashriyot nomi. Internet adres (URL).

Sirojiddinov, Shuhrat va Sohiba Umarova. 2017. *O'zbek matnshunosligi qirralari*. Chikago: Chikago universiteti nashriyoti. <http://press-pubs.uchicago.edu/founders/>.

Matnda elektron kitobga havola:

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Sirojiddinov 2017, 19-hujjat]

VII.3. Jurnal maqolasi uchun

Chop etilgan jurnal maqolasini bibliografiyada berish tartibi:

Familiya, Ism. Nashr yili. "Maqola nomi". *Jurnal nomi* jurnal soni: maqola sahifalari.

Mahmudov, Nizomiddin. 2013. "Termin, badiiy so'z va metafora". *O'zbek tili va adabiyoti* 4: 3 – 8.

Matnda jurnal maqolasiga havola:

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Mahmudov, 2013, 5]

Elektron jurnal uchun:

Elektron jurnal uchun jurnalning DOI manzili ko'rsatiladi. Agar DOI manzili mavjud bo'lmasa, internet adresi ko'rsatilishi kerak (URL). DOI – bu o'zgarmas ID bo'lib, internet tarmoqlarining elektron adreslari tizimiga ulangan, ya'ni manbani boshqaruvchi <http://dx.doi.org/> manzildir.

Elektron jurnal maqolasini bibliografiyada berish:

Familiya, Ism. Nashr yili. "Maqola nomi." *Jurnal nomi* jurnal soni: maqola sahifalari. DOI adres (yoki URL).

Aminov, Hasan. 2018. "O'zbekiston san'atida temuriylar siymosi". *O'zbekistonda xorijiy tillar* 2: 246 – 253. doi: 10.36078/1596780051.

Matnda maqolaga havola:

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Aminov 2018, 248]

7.4. Gazeta yoki ilmiy-ommabop jurnal uchun

Gazeta yoki ilmiy-ommabop jurnal maqolasiga havola matn shaklida beriladi (masalan, Muhammadjon Imomnazarovning 27.02.2005dagi "O'zbekiston adabiyoti va san'ati" gazetasida chop etilgan maqolasida

aytilganidek...); odatda, bunday manbalar umumiy adabiyotlar ro'yxatida keltirilmaydi. Agar keltirilsa, kitoblarga qo'yiladigan talablarga asosan beriladi.

Agar onlayn maqolaga havola berilayotgan bo'lsa, uning internet manzili (URL), maqola olingan sana ko'rsatilishi kerak.

Gazeta yoki ilmiy-ommabop jurnal maqolasini bibliografiyada berish tartibi:

Familiya, Ism. Nashr yili. "Maqola nomi." *Gazeta-Jurnal nomi*, nashr sanasi. Imomnazarov, Muhammadjon. 2005. "Jomiy "Xamsa" yozganmi?" *O'zbekiston adabiyoti va san'ati*, January 25.

Matnda maqolaga havola:

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Imomnazarov 2005, 4]

Elektron gazeta yoki ilmiy-ommabop jurnal maqolasini bibliografiyada berish:

Familiya, Ism. Nashr yili. "Maqola nomi." *Jurnal nomi*, nashr sanasi. Internet adres.

Jabborov, Rustam. 2019. "Navoiyning Tabrizda yashagan xorazmlik kotibi". UZA: *O'zbekiston Milliy axborot agentligi*, 08.12. <https://uza.uz/uz>.

Matnda maqolaga havola:

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Jabborov 2010, 17]

Maqola so'ngida foydalanilgan adabiyotlar o'zbek lotin alifbosi tartibida beriladi. Adabiyotlar ro'yxati ikki qismdan iborat bo'lishi, birinchi qismda foydalanilgan adabiyot chop etilgan grafikada yuqorida ko'rsatilgan shaklda rasmiylashtirilishi, ikkinchi qismda esa barcha foydalanilgan adabiyotlar o'zbek lotin alifbosida berilishi talab qilinadi. Misol uchun:

Adabiyotlar

Баранов, Х.К. 1958. Арабско – русский словарь. Москва: Наука.

Adabiyotlar

Baranov, X.K. 1958. Arabsko – russkiy slovar. Moskva: Nauka.

Maqolani rasmiylashtirish talablarining ingliz tilidagi variantini "The Chicago Manual of Style, 16th Edition" qo'llanmasi yoki <https://www.chicagomanualofstyle.org/>. havolasidan ko'rib olishingiz mumkin.

GUIDELINES FOR CONTRIBUTORS

Uzbekistan: Language and Culture is an academic journal, publishing research in linguistics, history, literature, translation studies, arts, ethnography, philosophy, anthropo- logy and social studies. We aim to publish cutting edge, innovative, conceptually interesting, original case studies and new research, which shape and lead debates in multifaceted studies. We do not publish economic analyses or policy papers. Any opinions and views expressed in publications are the opinions and views of

the authors, and the publishers are not responsible for the views/ reviews of the contributors.

The journal is published four times a year. The language of articles can be English, Russian and Uzbek. Other Turkic languages are also welcomed. In addition to research articles, the journal welcomes book reviews, literature overviews, conference reports and research project announcements.

1. General

- Submission Guideline

1. Manuscripts may be submitted at any time during the year. However, if the author wishes to have his/her manuscript published in a certain issue of the journal, the submission should be made at least five months in advance of the proposed publication date.

2) Manuscripts should be submitted by email (uzlangcult@gmail.com) as an attachment in MS Word document (.doc) format and use MS Word Source.

3) All manuscripts should be submitted with a cover page including an email address, a mailing address and a short introduction about the author(s) /contributor(s)'.

2. Manuscript format

1) The main texts should be written in Times New Roman font, 12 point, and single-spaced in 44 pagination with 1-inch margins.

2) Submissions must follow the author-date system of The Chicago Manual of Style, 16th Edition.

3) Quotations are given in brackets in the text.

4) A research article should normally be no more than 9,000 words in length, including the following contents:

- an abstract of 150-200 words (in English, Russian, and Uzbek) and seven to ten keywords;

- a list of references of no more than five (5) pages;

- tables and figures, if any.

5) A book review should generally be about 1,500 English words (or other languages) in length, and must include the heading and closing in the following format:

- Heading: Title of the Book. By Author's Name(s). City of Publication: Publisher Name, Year. pp. Price, ISBN:, (hardcover/paperback).

- Closing: Book reviewer's name, affiliation and postal address at the end.

6) Style Points Headings. Limit: Four levels.

Level 1. Title Style (e.g. the first letter of each word upper case, except prepositions), Bold, and 14 point.

Level 2. Title Style, Italics, 14 Point.

Level 3. Modified "down" style (first letter upper case, or first letter of first two words if the first word is an article), Bold, and 12 point.

Level 4. Modified down style, Bold, 11 point.

3. Style and Usage

1) Translation

- Translated excerpts from classical texts or non-English sources should be annotated with clarification of its original/published language and translator. Likewise, “Author’s own” translations of quoted texts should be noted as such.

- The author is expected to provide an English translation of key terms in the work, rather than a translator without expertise in the subject.

- Excerpts or quoted texts from published translation will not be edited. However, UzLC editors may query or modify translations of key terms or texts provided by the author.

- Where necessary, short supplementary information such as dates, an item in its original characters, or the Romanized form of a non-English item, may be included.

- Names of foreign publishers, and titles of sources published in a foreign language should primarily appear in Romanized form without translation. However, if necessary, a translation may be added in brackets ([]).

2) Names and Terms

- Place Names (foreign):

Designation for division of areas should be either translated or hyphenated after the given area name.

Designation for geographical/structure names are not hyphenated, and appear without the equivalent English term.

Institutional names are considered proper nouns. Their names should appear following the preference of the individual institutions.

3) The descriptive designation of a period is usually lowercase, except for proper names or traditionally capitalized terms.

4. Quotation

1) Block Quotations:

- A block quotation should start with double line spacing and an indentation from the left margin. From the second paragraph of the block quotation, additional paragraph indentation is needed.

Texts in block quotation should be written in Times New Roman 10 pts., and not be entirely italicized.

5. Others

1) There is one space after sentence punctuation and not two.

2) The end parenthesis, closing quotation mark, and footnote numbers come after the sentence punctuation.

3) For parentheses within parentheses, use brackets ([]).

6. Basic Citation Format

The following examples illustrate citations using the **author-date** system. Each example of a reference list entry is accompanied by an example of a corresponding parenthetical citation in the text. For more details and many more examples, see chapter 15 of The Chicago Manual of Style.

BOOK

Reference List (hanging indent):

Pollan, Michael. 2006. *The Omnivore's Dilemma: A Natural History of How Eating Has Evolved*. New York: Penguin.

In Text Cite:

[Pollan 2006, 99–100]

Reference List (hanging indent):

Ward, Geoffrey C., and Ken Burns. 2007. *The War: An Intimate History, 1941–1945*. New York: Knopf.

In Text Cite:

[Ward and Burns 2007, 52]

For four or more authors, list all of the authors in the reference list; in the text, list only the first author, followed by et al. (“and others”):

[Barnes et al. 2010, 847]

Reference List (hanging indent) book chapter:

Kelly, John D. 2010. “Seeing Red: Mao Fetishism, Pax Americana, and the Moral Economy of War.” In *Anthropology and Global Counterinsurgency*, edited by John D. Kelly, Beatrice Jauregui, Sean T. Mitchell, and Jeremy Walton, 67–83. Chicago: University of Chicago Press.

In Text Cite:

[Kelly 2010, 77]

Chapter of an edited volume originally published elsewhere (as in primary sources):

Reference List (hanging indent) book originally published elsewhere:

Cicero, Quintus Tullius. 1986. “Handbook on Canvassing for the Consulship.” In *Rome: Late Republic and Principate*, edited by Walter Emil Kaegi Jr. and Peter White. Vol. 2 of University of Chicago Readings in Western Civilization, edited by John Boyer and Julius Kirshner, 33–46. Chicago: University of Chicago Press. Originally published in Evelyn S. Shuckburgh, trans., *The Letters of Cicero*, vol. 1 (London: George Bell & Sons, 1908).

In Text Cite:

[Cicero 1986, 35]

BOOK PUBLISHED ELECTRONICALLY

If a book is available in more than one format, cite the version you consulted. For books consulted online, list a URL; include an access date only if one is required by your discipline. If no fixed page numbers are available, you can include a section title or a chapter or other number.

Reference List (hanging indent):

Austen, Jane. 2007. *Pride and Prejudice: A Novel in Five Books*. New York: Penguin Classics. Kindle edition.

In Text Cite:

[Austen 2007, 101]

Reference List (hanging indent):

Kurland, Philip B., and Ralph Lerner, eds. 1987. *The Founders' Constitution*. Chicago: University of Chicago Press. <http://press-pubs.uchicago.edu>.

edu/founders

In Text Cite:

[Kurland and Lerner, chap. 10, doc. 19]

JOURNAL ARTICLE

Article in a print journal

In the text, list the specific page numbers consulted, if any. In the reference list entry, list the page range for the whole article.

Reference List (hanging indent):

Weinstein, Joshua I. 2009. "The Market in Plato's Republic." *Classical Philology* 104:439–58.

In text cite:

[Weinstein 2009, 440]

Article in an online journal

Include a DOI if the journal lists one. A DOI is a permanent ID that, when appended to <http://dx.doi.org/> in the address bar of an Internet browser, will lead to the source. If no DOI is available, list a URL. Include an access date only if one is required by your discipline.

Reference List (hanging indent):

Kossinets, Gueorgi, and Duncan J. Watts. 2009. "Origins of Homophily in an Evolving Social Network." *American Journal of Sociology* 115:405–50. doi:10.1086/599247.

In text cite:

[Kossinets and Watts 2009, 411]

Article in a newspaper or popular magazine

Newspaper and magazine articles may be cited in running text ("As Sheryl Stolberg and Robert Pear noted in a New York Times article on February 27, 2010..."); they are commonly omitted from a reference list. The following examples show more formal versions of the citations. If you consulted the article online, include a URL; include an access date only if your discipline requires one. If no author is identified, begin the citation with the article title.

Reference List (hanging indent):

Mendelsohn, Daniel. 2010. "But Enough about Me." *New Yorker*, January 25.

In text cite:

[Mendelsohn 2010, 68]

Reference List (hanging indent):

Stolberg, Sheryl Gay, and Robert Pear. 2010. "Wary Centrists Posing Challenge in Health Care Vote." *New York Times*, February 27. <http://www.nytimes.com/2010/02/28/us/politics/28health.html>.

In text cite:

[Stolberg and Pear 2010, 12]

WEBSITE

A citation to website content can often be limited to a mention in the text (“As of July 19, 2008, the McDonald’s Corporation listed on its website . . .”). If a more formal citation is desired, it may be cited as in the examples below. Because such content is subject to change, include an access date or, if available, a date that the site was last modified. In the absence of a date of publication, use the access date or last-modified date as the basis of the citation.

Bibliography (hanging indent):

Google. 2009. “Google Privacy Policy.” Last modified March 11. <http://www.google.com/intl/en/privacypolicy.html>.

In text cite:

[Google 2009]

Reference List (hanging indent):

McDonald’s Corporation. 2008. “McDonald’s Happy Meal Toy Safety Facts.” <http://www.mcdonalds.com/corp/about/factsheets.html>.

In text cite:

[McDonald’s 2008]

Jurnal 2017-yil 26-oktyabrdan O'zbekiston Respublikasi Matbuot va axborot agentligi tomonidan № 0936 raqam bilan ro'yxatdan o'tgan. Tahririyatga kelgan maqolalar mualliflarga qaytarilmaydi.

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya Komissiyasi tomonidan filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalari chop etilishi lozim bo'lgan ro'yxatga kiritilgan (30.10.2021. № 308/6).

Manzil: Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos
Hojib ko'chasi 103-uy.
Telefonlar: +99871 281-45-11, +99871 281-41-93.
Website: www.uzlc.navoiy-uni.uz
E-mail: uzlangcult@gmail.com